



ALKOGOLIZM. ALKOGOL PSIXOZLARI

Toshpo'latova Madina Abduraxmon qizi

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: Akogolizm inson salomatligiga ruhiy holati va ijtimoiy faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi surunkali kasallik hisoblanadi. Ushbu maqolada alkogolizmning etiopotogenetik xususiyatlari, klinik kechishi, organism tizimlariga ta'siri hamda uning og'ir asoratlaridan biri bo'lgan alkogol psixozlarining rivojlanishi mexanizmlari taxlil qilingan. Alkogol psixozlarining asosiy turlari jumladan alkogol deliriysi, gallyusinozi, alkogol paranoid, klinik jihatdan tavsiflangan. SHuningdek mazkur holatlarning diagnostikasi, tashxisi, davolash tamoyillari va profilaktika chora tadbirlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari alkogolizm va alkogol psixozlarini erta aniqlash, samarali davolash hamda bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda kompleks yondoshuv muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Alkogolizm, alkogol psixozi, alkogol deliriysi, alkogol gallyusinozi, psixik buzilishlar, abstinent sindrom, narkologiya, diagnostika, davolash, profilaktika, ruhiy salomatlik, surunkali alkogolizm.

Annotasiya: Alkogolizm- eto khronicheskoye zabolevaniye, ser'yezno vliyayushcheye na zdorov'ye cheloveka, yego psikhicheskoye sostoyaniye i sotsial'nuyu aktivnost'. V dannoy stat'ye analiziruyutsya etiopatogeneticheskiye osobennosti alkogolizma, yego klinicheskoye techeniye, vozdeystviye na sistemy organizma i mekhanizmy razvitiya alkogol'nogo psikhoza, odnogo iz yego tyazhelykh oslozhneniy. Klinicheski opisany osnovnyye tipy alkogol'nogo psikhoza,



vklyuchaya alkohol'nyy deliriy, gallyutsinatsii i alkohol'nyyu paranoyyu. Takzhe rassmotreny diagnostika, printsipy lecheniya i profilakticheskiye mery etikh sostoyaniy. Rezul'taty issledovaniya pokazyvayut, chto kompleksnyy podkhod imeyet bol'shoeye znacheniye dlya ranney diagnostiki, effektivnogo lecheniya i uluchsheniya kachestva zhizni patsiyentov s alkoholizmom i alkohol'nym psikhozom.

Klyucheviye slova: Alkoholizm, alkohol'nyy psikhoz, alkohol'nyy deliriy, alkohol'nyye gallyutsinatsii, psikhicheskiye rasstroystva, abstinentnyy sindrom, narkologiya, diagnostika, lecheniye, profilaktika, psikhicheskoye zdorov'ye, khronicheskiy alkoholizm

Abstract: Alcoholism- is a chronic disease that seriously affects human health, mental state and social activity. This article analyzes the etiopathogenetic features of alcoholism, its clinical course, effects on body systems, and the mechanisms of development of alcoholic psychosis, one of its severe complications. The main types of alcoholic psychosis, including alcoholic delirium, hallucinosis, and alcoholic paranoia, are clinically described. The diagnosis, treatment principles, and preventive measures of these conditions are also covered. The results of the study show that an integrated approach is of great importance in the early detection, effective treatment, and improvement of the quality of life of patients with alcoholism and alcoholic psychosis.

Keywords: Alcoholism, alcoholic psychosis, alcoholic delirium, alcoholic hallucinosis, mental disorders, abstinence syndrome, narcology, diagnostics, treatment, prevention, mental health, chronic alcoholism.



Kirish

Alkogolizm — tibbiyot nuqtai nazaridan spirtli ichimliklarni mudom ichaverish oqibatida ro‘y beradigan surunkali kasallik; ashaddiy ichkilikbozlik. Keng ma‘noda — spirtli ichimliklarni me‘yoridan ortiq ichishning kishilar sog‘lig‘i va mehnat qobiliyatiga, ma‘naviy va maishiy hayotiga, shuningdek jamiyat farovonligiga yetkazadigan zararlari majmui. Alkogolizm individual va ijtimoiy hayotning hamma shakllariga ta‘sir ko‘rsatadi. Ichkilik ta‘sirida odamlar jamiyat va davlat oldida mas‘uliyat sezish hissini yo‘qotib qo‘yadi, bezorilik va qonunni buzishga aloqador boshqa xatti-harakatlarni qilishi mumkin. Alkogolizm ishlab chiqarishga zarar yetkazadi, mehnat intizomining buzilishi va unumdorligining pasayishi, odamlarning xastalanib qolishi va hatto bevaqt halok bo‘lishiga olib keladi. Mastlikda odamning muvozanatni yaxshi saqlay olmasligi, diqqati chalg‘ib, atrofdagi vaziyatni aniq bila olmasligi baxtsiz hodisalarga sabab bo‘ladi.

Alkogolizm odam organizmidagi hamma sistemalar va a‘zolar faoliyatiga putur yetkazadi. Ichkilikboz odam o‘zi ichayotgan ichkilik miqdorini bilmay qo‘yadi, markaziy va periferik nerv sistemasi faoliyati buzilib (psixik kasalliklar, nevrillar va boshqa paydo bo‘ladi), ichki a‘zolar funksiyasi izdan chiqadi. Ichkilikning zaharli ta‘siri moddalar almashinuvi, ayniqsa vitaminlar almashinuvining buzilishiga olib keladi. Ichkilikboz odam qo‘l barmoqlari, ko‘z qovoqlari, til uchining titrab turishi, shuningdek har kuni bajarib yurgan odatdagi ishini bajara olmay qolishi mumkin. Ko‘p ichadigan odamda ko‘z xiralashib, ba‘zan quloq ham og‘ir tortib qoladi. Ichkilikning me‘daga ta‘siri natijasida shu a‘zoning barcha funksiyalari buziladi. Ichkilik ayniqsa jigarga zararli ta‘sir ko‘rsatib, jigar sirrozi yuzaga keladi. Alkogolizm pankreatit, stenokardiya va miokard infarkti kasalliklariga ham sabab bo‘ladi. Ichkilik ichki sekretsia bezlari va birinchi galda jinsiy bezlarga zarar qiladi, mijoz susayib, jinsiy zaiflik paydo bo‘ladi. Ayollar ichkilik ta‘sirida tez so‘lib qoladi, pushti susayib, homiladorlik vaqtida har xil



asoratlar ko‘proq uchraydi. Mudom ichib yurish kishining barvaqt qarib, nogiron bo‘lib qolishiga olib keladi. Alkogolizmning oldini olish. alkogolizm belgilari paydo bo‘lganda, ichkilikbozni narkologiya shifoxonalariga yotqizib, uzoq vaqt davomida narkolog vrach kuzatuvida muntazam davolanishni tashkil qilish kerak.

Alkogol psixozi

Alkogol psixozi yoki ichkilik jonsarakligi o‘tkir, to‘satdan boshlanadigan, bemorning o‘zi va atrofdagilar uchun xavfli kasallikdir. Boshning shikastlanishi, yuqumli kasalliklar, uzoq uyqusizlik, og‘ir ruhiy kechinmalar uning paydo bo‘lishiga olib keladi. Kasallikdan oldin uyquning buzilishi, bemorning vahimali tushlar ko‘rib chiqishi. Ko‘proq erkaklarda uchraydi. Buning kelib chiqishida miya to‘qimalari ichkilik ta’sirida zaharlanadi. Unda moddalar almashinuvi buziladi. Alkogol psixozi, asosan, abstinent holatida boshlanadi. Alkogol psixozning klinik manzarasi deliriy, gallutsinozlar, vasvasalar, ensefalopatiya ko‘rinishida bo‘ladi. Bundan tashqari psixozlarning aralash va o‘zgargan turlari kuzatiladi.

Alkogol deliriysi

Alkogol deliriy (oq alahlash) turi uch bosqichda bo‘ladi:

1. Emotsional va harakatlar hayajonlanish, ko‘p gapirish, fikrlar va so‘zlarning ko‘payishi, imo-ishoralarning kuchayishi, o‘ta sezuvchanlik, kayfiyatning tez o‘zgarishi, uyqusizlik va vegetativ o‘zgarishlar paydo bo‘ladi.
2. Yuqoridagi o‘zgarishlarga ko‘rish illuziyasi va gallutsinatsiyalari qo‘shiladi.
3. Tashqi hodisalarga vaqt va joyga bo‘lgan mo‘ljallarning yo‘qolishi qo‘shiladi. Deliriy psixozdagi bemorlarda gallutsinatsiyalar hosil qilish, masalan, bemor yumuq



ko‘zlari ustiga barmoq bilan sekin bosib, ularga har xil ko‘rinish gapirilganda, ularda ko‘rish gallutsinatsiyasi paydo qilish mumkin. Bemor toza qog‘ozda har xil yozuvlarni ko‘rishi mumkin yoki uzib qo‘yilgan telefon bilan gaplashadi. Deliriyda har doim titroq, gandıraklash, yurakning tez urishi, ko‘p terlash holatlari kuzatiladi. Alkogolli deliriy 2—8 kun davom etadi va chuqur uyqu bilan tugallanadi. Deliriyning quyidagi turlari bor:

1. Gipnogagik turda uyqu oldidan bemor ko‘zlarini yumganda, sahnasimon ko‘rish gallutsinatsiyalari paydo bo‘ladi va bemor ko‘zini ochsa, bu holat yo‘qoladi.

2. Deliriysiz — deliriy (qaltirash alomati) butun tanada titroq bo‘lib, bezovtalik, o‘zini yo‘qotish, harakatlanish, qayoqqadir chopish holatlari kuzatiladi.

3. Aralash turida sahnasimon ko‘rish gallutsinatsiyalari, vasvasa g‘oyalari va so‘z, eshitish holatlari kuzatiladi.

Alkogolli gallutsinozlar

Kasallik kechishi o‘tkir, o‘rtacha o‘tkir va surunkali turlarga bo‘linadi. O‘tkir turi bir necha soatdan bir necha haftagacha yoki 1 oygacha davom etadi. Bu birdan boshlanib, kechqurun yoki tunda uyqusizlik, eshitish gallutsinozlari kuzatiladi. O‘rtacha og‘irlikdagi turi bir oydan olti oygacha cho‘ziladi va eshitish gallutsinozlari bo‘ladi. Surunkali turi olti oydan oshib ketadi. Bunda eshitish gallutsinozlari doimiy bo‘lib, bemorlar bu ovozlarga ko‘nikib qoladilar. O‘zlari tinchlanib, keyinchalik ish qobiliyatni tiklab oladilar.

Alkogolli vasvasali psixoz

Alkogolli vasvasali psixozning quyidagi turlari mavjud:



1. Alkogolli paranoid (ta'qib qilish vasvasasi)—bunda, bemorda bosh og'riq kuchayadi, bezovtalanish, hayajon, qo'rqish, harakat qo'zg'aluvchanligi namoyon

bo'ladi. Bemorga har qanday kishi ta'qibchi bo'lib tuyuladi. Tez orada ko'rish va eshitish illuziyalari paydo bo'ladi. Bemorlar ta'qibchilardan qochishi yoki o'zlariga jarohat yetkazishi mumkin. Kechga borib esa delirioz belgilar, eshitish gallutsinatsiyalari paydo bo'ladi.

2. Rashk vasvasalari ko'proq erkaklarda uchraydi. Bemorlarda o'z xotini o'ynash topib olgandek, fikrlar paydo bo'ladi. Ular, ko'pincha, dalil va ashyolar qidirib, xotinlarining orqasidan kuzatib, kiyimlarini tekshirib yuradilar. Bemorlar o'z xotinlariga nisbatan tan jarohati yetkazishlari mumkin.

Alkogolli ensefalopatiya

Bunda, o'tkir ruhiy o'zgarishlar, somatik (terining oqarib qolishi, ko'z oqining sarg'ayishi, haroratning ko'tarilishi, yurakning tez urishi, qon bosimning pasayishi, hushdan ketish, jigarning kattalashishi) va asab tizimidagi (titroq, gandarlash, mushaklar tortishi yoki bo'shishi, nistagm, ko'rishning pasayishi, patologik reflekslarining paydo bo'lishi, ensa mushagining qotishi) o'zgarishlar kuzatiladi. Karsakov psixozida surunkali alkogol psixozida kuzatiladi. Bunda xotiraning pasayishi, joyni, vaqtni, atrof-muhitni bemorlar bilmaydi, konfabulatsiya va polinevritga xos belgilar paydo bo'ladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqealar esda bo'ladi, kasbga, mehnatga bo'lgan qobiliyat saqlanib qoladi. Alkogol falaji ko'proq erkaklarda uchraydi. Ruhiy o'zgarishlar, fikrlash, bilimlar, o'z-o'ziga tanqidiy qarashlar kamayadi. Eyforiya, hazillar, o'ziga ishonish kuchi yuqori bo'ladi, xotira buzilishlari kuzatiladi.



Davosi

Alkogolli psixoz zaharlanish bosqichida bemorlarni davolashda gemodez, reopoligukin 400,0 ml 2 mahal kuniga, 5% 400,0 ml glukoza eritmasini tomir ichiga tomchilatib quyish buyuriladi. 30% 10,0 ml natriy tiosulfat, 5% 5—10,0 ml unitiol, 10% 10,0 ml kalsiy xlor, 25% 10,0 ml magneziy sulfat dorilari tavsiya etiladi. Bemor ko‘zg‘alganda, seduksen, GOMK; alkogolli vasvasalar, galyusinasiyalarda aminazin, galoperidol o‘rtacha dozada, bular hamma vaqt vitaminlar bilan birga beriladi. Miya shishganda mannit, laziks hamda kokarbaksilaza, askorbin kislotasi, eufillin yaxshi yordam beradi. Jigar zararlanganda, metionin, essensial 3—4 mahal buyuriladi. Alkogolli ensefalopatiyada vitaminlar, pirasetam, aminazin, ensefabol, asefenlar bilan birga bosh miyada qon aylanishini yaxshilovchi dorilar—kavinton, stugeron yoki sinnarizin, sernion buyuriladi. Alkogolizmga qarshi davolashni psixoz tugagandan bir necha oydan keyin boshlash mumkin.

Dunyo miqyosida tarqalishi. Xronik alkogolizm – bu kasallikning xalqaro tasnifidan (ICD) chiqarib tashlangan tashxisning eskirgan nomi. ICD – 10 ning yangi versiyasida „alkogolga qaramlik sindromi“ atamasi qo‘llanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining hisobotiga ko‘ra, sayyoramizda 70 millionga yaqin odam alkogolizmdan aziyat chekmoqda. Bugungi kunda Rossiyada og‘ir ichuvchilar toifasiga aholining 10 foizi kiradi, ularda erkaklarning ulushi ayollarnikidan 5-10 baravar ortiq.

Alkagol ta‘sirida kuzatilgan o‘lim holatlari (1990-2019). 1950-yillarga qadar Yevropa va Amerika mamlakatlaridagi jamiyat va shifokorlar ongida alkogolizm kasallik sifatida emas, balki insonning axloqiy zaifligi, buzuqligi, irodasizligi natijasida paydo bo‘ladigan illat sifatida qaralgan. Keyingi yillarda ilmiy tadqiqotlar natijasida ushbu kasallik biologik, psixologik va ijtimoiy kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga olganligi ko‘rsatildi.



Manbalar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2000-yil.
2. “Surunkali alkogolizm” Qaraldi: 2022-yil 28-avgust.
3. Salomatlik ensiklopediyasi, 1985-yil — 450-bet.
4. X. Q. Shodmonov, X. Sh. Eshmurodov O. T. Tursunova.
5. ASAB VA RUHIY KASALLIKLAR. «Bilim» nashriyoti, 2004.
6. „Chronic alcoholism“. 2022-yil 28-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2024-yil 12-dekabr.
7. **Foydalanilgan internet manbalari.**

<https://www.askapollo.com/physical-appointment/dermatologist>

<https://www.apollohospitals.com/patient-care/health-and-lifestyle/understanding-investigations/allergy-tests><https://www.apollohospitals.com/patient-care/health-and-lifestyle/diseases-and-conditions/contact-dermatitis/>